

MADANIY-OMMAVIY TADBIRLARNING JAMIYAT MA'NAVIY HAYOTIDA TUTGAN O'RNI

Samiyev Baxtiyor Norbobo o‘g‘li,

Ilmiy rahbar: **Xolmo‘minov Mo‘minmirzo**
O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti
mominmirzoxolmominov@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada hozirgi globallashuv davrida madaniy-ommaviy tadbirlarning jamiyat ma’naviy hayotidagi o‘rni va uning maqsadi haqida atroflicha fikrlar yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Ma’naviyat, ommaviy - madaniy tushuncha, tadbir, jamiyat, globallashuv, iqtisodiyot, salohiyat, urf-odat.

Annotation: In this article, in the context of current globalization, the role of mass cultural events in the spiritual life of society and its purpose are discussed.

Keywords: Spirituality, a popular cultural concept, event, society, globalization, economic, potential, tradition.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgan davridan boshlaboq, olib borilayotgan barcha iqtisodiy, siyosiy jarayonlarning asosida ham ma’naviy-marifiy, axloqiy va tarbiyaviy ishlarning hamohangligini kuzatish mumkin. Shu jihatdan olib qaralganda, madaniyat va san’atga aloqador bo‘lgan sohalarda yurt tinchligi, vatan ravnaqi, komil inson kabi tushunchalar talqini muhim ijodiy va tashkiliy jarayonlarni qamrab oladiki, unda madaniyat xodimlari, san’at sohasi vakillari zimmasiga katta ma’suliyat yuklanadi. Zero, so‘z madaniyat va san’at, milliy mafkura ma’naviy g‘oya haqida borar ekan, unda madaniy va ommaviy tadbirlarning jamiyat taraqqiyotidagi muhim ahamiyati beqiyosligini hech kim inkor etolmaydi. Ommaviy san’at asarlari hisoblangan teatr, kino yoki ommaviy tadbirlarni mazmunli, maqsadli niyatga erishishda san’atning barcha turlaridan foydalaniladi va tomoshabinlarga taqdim etiladi. Ammo deyarli tashkil etiladigan barcha tadbirlarning asosida ma’naviy, tarbiyaviy va axloqiy, ma’rifiy jarayonlarning yotganligiga shubha yo‘q. O‘z o‘rnida madaniy-ommaviy tadbirlarning jamiyat ma’naviy hayotida tutgan o‘rni beqiyosdir.

Madaniy-ommaviy tadbirlar deganda – eng avvalo milliy g‘oya asosida xalqni birlashtirish, jipslashtirish, yosh avlod ongi va qalbida ezgu g‘oyalarga sadoqat tuyg‘ularini tarbiyalashga, shuningdek, kishilarni ma’naviy tajovuzlardan ogohlikka, chorlash, ularni mohiyatini anglab yetishga qaratilgan tizimli shakllar, usullar, vositalar va maqsadli amaliy harakatlar majmuidir [1;5]. Shundan bilishimiz mumkinki, madaniyat va san’at maskanlarida , xususan, madaniyat va istirohat bog‘larida o‘tkaziladigan tadbirlarda ham eng asosiy masala yoshlar ongi va qalbida mustaqillik g‘oyasi, yuqori ma’naviyat va insonparvarlik an’analariiga sadoqat tuyg‘ularini yanada chuqr ildiz otishi, radikalizm va eksteremizmdek yot g‘oyalarga qarshi immunitetni mustahkamlash kabi vazifalarga yuklatiladi bu tadbirlarning vazifasi hisoblanadi. Yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga nisbatan hurmat ruhida tarbiyalash, yosh avlodda hayotga qat’iy ishonch va qarashni, mentalitetimizga yot bo‘lgan zararli ta’sir va oqimlarga qarshi tura oladigan qobiliyatini rivojlantirish bugungi madaniy - ommaviy tadbirlarini tashkil etish mutasaddilarining asosiy ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Shu jihatdan ham madaniy-ommaviy tadbirlarni tashkil etish, uning dramaturgiyasini yaratishda ham tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan manbalarni qo’llay olish, unda odob, axloq, jamiyat taraqqiyoti, insonlarni bilimli, ilqli qilish, ma’naviyat bilan qurollantirish, komil insonni tarbiyalashga qaratilgan vazifalar dolzarbligini yo‘qotmaydi. Mana shunday ulkan ishlarni amalga oshirishda madaniy tadbirlarni tashkil etish, uni tarbiyaviy jarayonlarga yo‘naltirish-hozirgi kunning asosiy masalasidir. Hozirgi kunda olib borilayotgan, tashkil etilayotgan barcha jarayonlar ta’lim va tarbiya asosiga qurilgan desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Prezidentimiz tomonidan ishlab chiqarilayotgan dasturlarimizning asosini ham mana shu ikki jarayon asosida tuzilgan deyishimiz mumkin. Sababi, yoshlar tarbiyasi, ma’naviyat masalalari, ta’lim berish kabi vazifalar davlatimiz tomonidan ishlab chiqilayotgan qaror, farmon va farmoyishlarida o‘z aksini topganligi barchamizga ayon. Shu bois, ta’lim va tarbiya masalalari davlatimiz siyosatining ustivor vazifalaridan ekanligini barchamiz to‘g‘ri anglashimiz zarur. Muhtaram yurtboshimiz "Ma’naviyatni shakllantirishga bevosita ta’sir qiladigan muhim hayotiy omil - bu ta’lim - tarbiya tizimi bilan chambarchas bog‘liqdir", deb aytganlari aynan mana shu sohaning vazifalarmini to‘g‘ri anglashga undaydi. Shu jihatdan ham tarbiya masalasi barcha masalalardan yuqori turishliklarini anglash qiyin emas. "Ta’limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta’limdan ajratib bo‘lmaydi - bu sharqona qarash, sharqona hayot falsafasidir".

Hozirgi globallashuv davrida madaniy-ommaviy tadbirlarni tashkil etishdan asosiy maqsad – milliy va dunyo madaniyatlarining eng yaxshi namunalarini keng targ‘ib qilish va uni ommalashtirish, o‘sib kelayotgan kelajak avlodni, zamonaviy yoshlarni ma’naviy

tarbiyalash, milliyligiga, millatiga, tarixiga, o‘zligiga ya’ni butun insoniyatga bo‘lgan hurmatini uyg‘otish va uni asrab avaylash, ma’naviy-ma’rifiy islohotlarda faol ishtirok etishidir[2;20]. Zotan, xalqlarning o‘ziga xosligi, betakrorligini saqlash, tarixan shakllangan qadimiy milliy madaniyatlar, san’at va xalq ijodiyoti, yuz yillar davomida tarkib topgan milliy an’ana va urf-odatlarning o‘zaro yaqinlashuvi va bir-birini boyitish uchun, dunyoda yashayotgan turli millat va elat vakillari o‘rtasida o‘zaro hurmat muhitini qaror toptirish uchun madaniy tadbirlarning ahamiyatini alohida ta’kidlash maqsadga muvofiqdir. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 29-iyuldagи 205-sonli qarori “Ommaviy tadbirlarni tashkil etish va o‘tkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari” to‘g‘risidagi qarori ham ommaviy-madaniy tadbirlari tashkilotchilari va xodimlari uchun muhim dasturul amal bo‘lib xizmat qilib kelmoqda desak yangilishmagan bo‘lamiz.

Madaniy va ommaviy tadbirlarda shaxs o‘z insoniy fazilatlarini shakllantira boshlaydi, yashirin, betakror, individual xususiyatlari, qobilyatlarini kashf etadi, ularni o‘siradi va rivojlantirib boradi, jamiyat, hayot bilan muloqotga kirishadi. Aynan bu murakkab ijtimoiy-siyosiy voqelik paytida bu tadbirlarning o‘ziga xosligi shundaki, u insoniyat avlodlarining mehnati va bilimlarini o‘ziga singdirib oladi, saqlaydi, doimiy boyitib boradi. Madaniy –ommaviy tadbirlar milliy, o‘zbekona qadriyatlar, an’analar, urf-odatlar orqali vujudga kelgan bo‘lib, har bir odamni bir-biriga nisbatan mehr-shavqatli, oqibatli bo‘lishga da’vat etadi, boyitadi. Undan tashqari tili va dini, millatidan qat’i nazar bo‘lgan barcha xalqlarni bir-biriga yaqinlashtiradi. Bunga misol jonajon O‘zbekistonimizni keltirishimiz mumkin, hozirgi kunda yurtimizda 130 dan ortiq millat va elat vakillari tinch-totuv yashab, istiqomat qilib kelishmoqda, bu millat vakillari yurtimizda nishonlanadigan barcha bayramlarimizda ko‘rishingiz mumkin va bu millat vakillari o‘z urf-odatlari bilan barcha bayramlarimizga qatnashishadi. Shuni uchun ham bu ommaviy-madaniy tadbirlar jamiyatimiz hayotini ajralmas bir qismi hisoblanadi. Madaniy-ma’rifiy ishlarning, jumladan, badiiy-ommaviy tadbirlarning o‘ziga xos printsiplari quyidagilardan iborat:[4;22]

1. *Ommaviylik va ixtiyoriylik printsipi.* Madaniy-ma’rifiy muassasalarda tashkil qilingan tadbirlarga kelish ixtiyoriydir. Tadbirlarga hech kimni majbur qilib qatnashtirib bo‘lmaydi. Mehnatkashlar ko‘ngliga yoqqan tadbirlarni tanlashlari va ularning qatnashchilari bo‘lishi mumkin. Tadbirlar ommabop va hamma uchun qiziqarli bo‘lmog‘i shart. Bunga erishish uchun tashkil qilinadigan tadbirlar yuqori saviyada hamda aholinnng asosiy ma’naviy ehtiyojlari va talablariga javob beradigan bo‘lmog‘i lozim.

2. *Jamoatchilikning tashabbuskorligi va havaskorligi printsipi.* Tadbirlar faqat mahalliy aholi uchun va ularning ishtiroki bilan tashkil qilinadi. Professional kollektivlarda tomoshalar professional ijrochilar – aktyorlar, solistlar, raqqosalar bilan tayyorlansa, madaniy-ma'rifiy muassasalarda tadbirlarning qatnashchilari, a'zolari, asosan, jamoatchilik tashabbuskorlari va havaskorlardan tashkil topadi. SHuning uchun ham tadbirni uyushtirishda halq orasidan chiqqan tashabbuskor kishilarni hamda badiiy havaskorlik kollektivlarining a'zolarini keng jalb qilmoq va ularning faoliyatidan samarali foydalanmoq kerak.

3. *SHaxsning ma'naviy qiyofasini boyitish va o'stirish printsipi.* Ma'lumki, kishi asosiy ish jarayonida va undan tashqari vaqtida o'zining ehtiyojini har tomonlama qondira olmaydi. Bu borada madaniy-ma'rifiy muassasalar, jumladan, ularda o'tkaziladigan rang-barang tadbirlar ham yordam berishi mumkin. Buning uchun aholining asosiy ishdan tashqari bo'sh vaqtlarida qaysi faoliyat bilan shug'ullanishi, qanday sohalarga qiziqishi va nimalarga ehtiyoji borligini aniqlab, maxsus tadbirlar tashkil qilish lozim.

4. *Axborot va badiiylikni* (informatsion mantiq va emotsiyal obrazlilikni) *uyg'unlashtirish printsipi.* Madaniy-ommaviy tadbirlarda ommaga ma'lum darajada axborot va bilim beriladi. Ular aholini ko'proq qiziqtirish uchun tushunarli, badiiy barkamol va ta'sirchan bo'lishi kerak. Buning uchun tadbirda axborotni ko'proq badiiy-emotsional obrazli shaklda, ta'sirchan vositalardan keng foydalangan holda ommaga etkazish lozim.

5. *Dam olish jarayoni mazmunini go'zallashtirish printsipi.* Tadbirlar, asosan, mehnatkashlarning asosiy ishidan holi vaqtida tashkil qilinadi hamda ularga maxsus dam olish shakllari havola etiladi. Mehnatkashlarning yaxshi hordiq chiqarishi uchun tadbirlarni estetik boyitish, go'zallik qonunlari asosida uyushtirish lozim. Tadbir o'tkaziladigan joyni ham, uyushtirilayotgan tadbir shaklining o'zini ham, undagi mazmun, harakat va so'zlarni hyam ko'rkar, go'zal, badiiy-estetik bezash katta samara beradi.

Xulosa qilib shuni aytish joizki, madaniy-ommaviy tadbirlar jamiyatimiz va Yangi O'zbekistonimiz uchun juda muhim sohalardan biri hisoblanadi. Madaniy-ommaviy tadbirlar aholini ma'naviy kamol toptirish, madaniy saviyasini oshirish, bilimini o'stirish, dunyo qarashini kengaytirish, bo'sh vaqtini samarali o'tkazishga qaratilgan ijodiy va tashkiliy jarayonlardir. Ammo, ommaviy-madaniy tadbirlarni tashkil etish va boshqarish funksiyalarini ilmiy asoslanishi muhimdir. Shuning uchun ham yangi intelektual va innovatsion tehnologiyalarga tayangan holda ijodiy va tashkilotchilik dunyoqarashimizni

shakllantirishimiz shart. Madaniy-ommaviy tadbirlarning tashkil etishning amaliy jihatlari, uning tarbiyaviy vositasi sifatidagi vazifalarini ko‘ra bilsak va yosh avlod ongiga yetkazsak, shundagina ong va saviya jihatidan yuksaladi va mustahkamlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 2014-yil, 29-iyuldaggi 205-sonli “Ommaviy tadbirlarni taskil etish va o‘tkazish tartibini yana takomillashtirish chora tadbirlari” to‘g‘risidagi qarori.
2. V. K.Rustamov. Ssenariynavislik mahorati. Toshkent. 2017-yil, 5-bet.
3. B.S.Sayfullayev, V.K.Rustamov. Madaniy tadbirlarni tashkil etish mahorati. Toshkent. 2016-yil, 20-bet.
4. <https://kompy.info/madaniy-tadbirlarni-tashkil-etish-maxorati.html>